

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish kafedrasida assistenti Sh.X.Muxammadiyevaning Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti 5440100 – veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavr yo‘nalishi 404-gurux talabalari uchun tayyorlangan “Parazitologiya va invazion kasalliklari” fanidan “Nematodlarning sistematikasi, morfologiyasi va biologiyasi” nomli ochiq dars (laboratoriya) ishlanmasiga**

## **T A Q R I Z**

Ushbu dars ishlanmasi “Parazitologiya va invazion kasalliklari” fanidan 5440100 – veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun namunaviy fan dastur va ishchi o‘quv dasturi (sillabusi) asosida yozilgan. Mavzu texnologik xarita, darsning maqsadi, laboratoriya mashg‘uloti uchun kerakli jihoz va asbob-uskunalar, unda qo‘llanilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati, topshiriq vazifalari, mazmuni, nazorat savollari mavjud. Nematodlarning sistematik asoslari, morfofiziologik xususiyatlari va biologiyasi aniq bayon qilingan. Nematodlarning veterinariya va tibbiyotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vakillari, ular tomonidan chaqiriladigan kasalliklar batafsil bayon etilgan.

Dars ishlanmasi ixcham, sodda tushunarli tilda yozilgan bo‘lib, talabalar o‘zlashtirishi uchun juda qulaydir. Mavzuga oid rasm va jadvallar o‘z o‘rnida izohi bilan berilgan.

Mavzuni to‘lig‘icha yoritib, oddiy va engil tushuncha hosil qilishiga erishgan. Nematodlar haqida keltirgan ma’lumotlarida bu tipning hayvonot olamida tutgan o‘rni, sistematik tavsifi, organ va sistemalarining tuzilishi, ular orasida alohida nazariy va amaliy ahamiyatga ega ular tomonidan qishloq xo‘jalik hayvonlarida keltirib chiqariladigan kasalliklar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ayni paytda ushbu dars talabalarda mavzu bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka paydo qilib, bo‘lajak mutaxassislarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Assistenti Sh.X.Muxammadiyeva tomonidan 5440100 – veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo‘yicha) bakalavr yo‘nalishi bo‘yicha “Parazitologiya va invazion kasalliklari” fanidan yozilgan “Nematodlarning sistematikasi, morfologiyasi va biologiyasi” mavzusidagi nomli ochiq dars (laboratoriya) ishlanmasiga ijobiy baholayman.

**“Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish” dotsenti, v.f.d. dotsent**

**Tayloqov T.I**

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish» kafedrasida**

**assistenti Sh.X.Muxammadiyevaning Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti 5440100 – veterinariya meditsinasi (faoliyat turlari bo'yicha) bakalavr yo'nalishi 404-gurux talabalari uchun tayyorlangan “Parazitologiya va invazion kasalliklari” fanidan “Nematodlarning sistematikasi, morfologiyasi va biologiyasi” nomli ochiq dars (laboratoriya) ishlanmasiga**

## **T A Q R I Z**

Sh.Muxammadiyevaning tomonidan tayyorlangan ushbu amaliy (laboratoriya) mashg'ulot darsi ishlanmasi “Parazitologiya va invazion kasalliklari” fanning namunaviy fan dasturi va fanning ishchi dasturi (sillabusi) rejasiga mos keladi, laboratoriya mashg'ulotidagi matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda uslubiy tomondan to'g'ri taqdimot qilingan. Unda tayanch so'zlar va iboralar xamda foydalanilgan adabiyot ro'yxatlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, talabalar o'rganish uchun lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka tarbiya metodlari, tamoyillari tartibi turlari bosqichma -bosqich ko'rsatib berilgan. Dastlab mashg'ulotning maqsadi va topshriqlari, amaliy mashg'ulotining o'qitish pedagogik texnologiyasi berilgan bo'lib, unda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari ko'rsatilgan yangi texnologiyalar (aqliy hujum, klaster, kichik guruhlarda ishlash) shuningdek darsda axborot texnologiyalaridan foydalanilib laboratoriya mashg'uloti uchun taqdimot qilingan.

Mazkur dars ishlanmasi Nematodlarning sistematikasi batafsil berilgan, anatoma - morfologiyasi aniq va tushunarli ravshd bayon etilgan va biologik rivojlanishlari soddaroq lekin kerakli ma'lumotlar. Bundan tashqari ishlanmada mavzu yuzasidan eng so'ngi ma'lumotlar, qiziqarli dalillar keltirilgan.

Umuman olganda assistant Sh.Muxammadiyeva tamonidan tayyorlangan ushbu dars ishlanmasi hozirgi zamon ta'lim texnologiyalari talablariga javob beradi o'zining mantiqiy nixoyasiga etgan, dars ishlanmasni ta'lim jarayonida foydalanishga tavfsiya etaman.

**“Veterinariya sanitariya ekspirtizasi”  
kafedrasi v.v.b. dotsenti, v.f.d. dotsent**

**Rasulov O'.I.**